



O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Mambetqulova Mahliyo, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Soliqlar va byudjet hisobi” fakulteti talabasi

Email: mahliyom364@gmail.com

Yuldashev Obiddin, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Sug'urta ishi” kafedrasi dotsenti i.f.d

Email: obiddin@inbox.ru

ORCID: 0000-0002-9640-8128

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston sug'urta tizimining 2020–2024 yillar davomida rivojlanish jarayoni tahlil qilingan. Maqolada sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari, jumladan, sug'urta mukofotlari hajmi, kompaniyalar soni, bozor segmentlari va ulushlaridagi o'zgarishlar o'r ganiladi. 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda sug'urta sohasida ijobjiy o'zgarishlar kuzatigan: sug'urta mukofotlari hajmi oshishi, kompaniyalar soni ko'payishi, hayot va ixtiyoriy sug'urta turlarining bozor ulushi sezilarli darajada kengayishi. Ushbu tahlilda sug'urta tizimining barqaror rivojlanishi uchun tavsiyalar va takliflarni ham o'z ichiga oladi. Maqolaning maqsadi sug'urta sohasida amalga oshirilgan islohotlarning natijalarini umumlashtirib, bozorni yanada rivojlanirish uchun takliflar berishdan iborat.

Kalit so'zlar: Sug'urta tizimi, sug'urta bozorining rivojlanishi, mukofotlar hajmi, hayot sug'urtasi, ixtiyoriy sug'urta, raqobatbardoshlik, qonunchilik islohatlari.

Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitida har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligini ta'minlashda moliyaviy institutlar, xususan, sug'urta tizimining o'rni tobora ortib bormoqda. Sug'urta nafaqat moliyaviy himoya vositasi, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim instrument hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy sug'urta tizimini shakllantirish va takomillashtirishga alohida e'tibor qaratdi. Avvalgi markazlashgan



tizimdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida sug‘urta sohasi ham tub islohotlarni boshdan kechirdi. Sug‘urta tizimi bugungi kunda nafaqat fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarini kutilmagan xatarlar va moliyaviy yo‘qotishlardan himoya qiladi, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda. O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar, strategiyalar va amaliy choralar sug‘urta bozorining jadal rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar joriy qilinishi, xalqaro tajribaning qo‘llanilishi hamda xorijiy investorlarning jalgan etilishi soha rivojida yangi bosqichni boshlab berdi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo‘lini tanlagan har qanday mamlakat uchun moliyaviy institutlarning samarali faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday institutlardan biri bo‘lgan sug‘urta tizimi fuqarolar, tadbirkorlar va davlat tashkilotlari uchun moliyaviy xavflarni kamaytiruvchi va xatarlarni boshqaruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Sug‘urta nafaqat moliyaviy himoya vositasi, balki iqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va ijtimoiy himoyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta bozori yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini tashkil etadi va bu orqali ularning moliyaviy tizimi barqaror ishlashiga hissa qo‘sadi. O‘zbekistonda esa sug‘urta tizimi shakllanishi mustaqillikdan keyin boshlangan bo‘lib, soha bugunga qadar bir necha muhim bosqichlarni bosib o‘tdi. Ilk yillarda mavjud bo‘lgan yagona davlat sug‘urta kompaniyasining faoliyati asta-sekinlik bilan bozor tamoyillariga asoslangan xususiy kompaniyalar raqobatiga yo‘l ochdi. Davlat tomonidan sohani tartibga soluvchi qonunlar, normativ hujjatlar va islohotlar paketi qabul qilindi. 1992 yildagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonun, 2002 yilda sug‘urta bozorini nazorat qilish agentligining tashkil etilishi, so‘nggi yillarda esa raqamli texnologiyalarni joriy qilish kabi bosqichlar soha rivojiga asos soldi.

Shuningdek, sug‘urta madaniyatini oshirish, aholining ushbu xizmatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish bo‘yicha davlat miqyosida tizimli ishlar olib borilmoqda. So‘nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “2021–2025 yillarda sug‘urta sektorini rivojlantirish strategiyasi” sohaning yangi bosqichga chiqishiga zamin yaratdi.



Strategiyada raqobatbardosh, moliyaviy barqaror va investitsiyaviy jozibador sug‘urta bozorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda sug‘urta tizimining rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi, ularning iqtisodiyotdagi o‘rni yoritiladi va bugungi holatni baholash asosida istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlar muhokama qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi.

Tahlil va natijalar.

O‘zbekiston sug‘urta tizimining rivojlanish jarayoni har bir bosqichda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq holda kechdi. 1990-yillarda asos solingan milliy sug‘urta tizimi dastlab davlatning kuchli ishtiroki bilan shakllangan bo‘lsa, keyingi yillarda ushbu tizim tobora bozor munosabatlariga moslashdi.

Birinchi bosqich (1991–2000 yillar)da sug‘urta bozori yangi tashkil etilayotgan, tajriba va bilim yetishmovchiligi sezilarli darajada edi. Bu davrda faqatgina majburiy sug‘urta turlari keng qo‘llanildi, ixtiyoriy sug‘urta esa jiddiy rivojlanmadidi. Aholi va tadbirkorlar sug‘urta xizmatlariga nisbatan ishonchsizlik bilan qarar edilar. Biroq bu davrda qo‘yilgan normativ-huquqiy asoslar keyingi bosqichlar uchun zamin bo‘ldi.

Ikkinci bosqich (2001–2010 yillar)da esa muayyan tuzilmaviy islohotlar amalga oshirildi. Sug‘urta kompaniyalari soni ortdi, raqobat muhiti vujudga kela boshladi. 2008-yilda moliyaviy inqiroz global sug‘urta bozorlariga ta’sir etgan bo‘lsada, O‘zbekistonda bu soha asosan ichki ehtiyojlarga yo‘naltirilgan bo‘lgani sababli bunday zarbalarni nisbatan yengil yengib o‘ta oldi. Bu davrda sug‘urta polislari hajmi va turi bo‘yicha kengaydi. Mol-mulk, transport, sog‘liqni saqlash va hatto hayot sug‘urtasi xizmatlari ommalasha boshladi.

Uchinchi bosqich (2011–2020 yillar) raqamli transformatsiya va modernizatsiya davri bo‘ldi. Davlat tomonidan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, xalqaro standartlarga mos hisobot tizimini joriy etish choralarini ko‘rildi. 2019-yilda “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirishi sug‘urta xizmatlarini onlayn ko‘rsatish imkonini yaratdi. Sug‘urta polislari elektron tarzda



rasmiylashtirish, mijoz ma'lumotlarini yagona tizimga kiritish va monitoring qilish kabi mexanizmlar ishlab chiqildi. Bu aholiga qulayliklar yaratdi, sug'urtaga ishonch ortdi va xizmatlardan foydalanish ko'paydi.

To'rtinchi bosqich (2021 yildan hozirgacha) — strategik rivojlanish va xalqaro integratsiya davri bo'lib, 2021–2025 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi asosida olib borilmoqda. Ushbu strategiyada quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

- Sug'urta bozorini raqobatbardosh va ochiq qilish;
- Chet ellik investorlar uchun yengilliklar yaratish;
- Sug'urta xizmatlarini xalqaro standartlar asosida ko'rsatish;
- Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish;
- Aholi va tadbirkorlar orasida sug'urta madaniyatini shakllantirish.

O'zbekistonda sug'urta bozorining 2020–2024 yillar davomida jadal rivojlanishi ko'zga tashlanadi. Quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar sug'urta mukofotlari hajmi, kompaniyalar soni va bozor segmentlarining ulushi bo'yicha amalga oshirilgan o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Har bir parametrni alohida tahlil qilamiz.

1-Jadval

2020–2024 yillar O'zbekistonda sug'urta tizimining rivojlanishi

Yil	Sug'urta mukofotlari (trln so'm)	Kompaniyalar soni	Hayot sug'urtasi ulushi (%)	Ixtiyoriy sug'urta ulushi (%)
2020	1,8	33	15%	52%
2021	2,6	38	20%	58%
2022	3,5	44	26%	63%
2023	4,7	51	32%	69%
2024	5,9	55	37%	74%

Sug'urta mukofotlari hajmining o'sishi 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda sug'urta mukofotlari hajmi 1,8 trillion so'mdan 5,9 trillion so'mga oshdi. Bu holat sug'urta bozorining jadal rivojlanishini va iqtisodiyotni himoya qilish uchun sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning oshganini ko'rsatadi. 2023-yil va 2024-yil davomida mukofotlar hajmining 1,2 trillion so'mga oshishi, aholining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash uchun sug'urta xizmatlarini keng qo'llashga bo'lgan



ehtiyojning ortganidan dalolat beradi. Kompaniyalar sonining ko‘payishi 2020-yilda 33 ta sug‘urta kompaniyasi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2024-yilda ularning soni 55 taga yetdi. Bu o‘sish, sug‘urta bozorining bozor iqtisodiyotiga yanada moslashishini va raqobat muhitining kuchayishini anglatadi. Sug‘urta kompaniyalarining ko‘payishi soha innovatsiyasining ortishiga olib keladi, va bu esa xizmatlar sifatining yaxshilanishi bilan natijalana boshlaydi. Hayot sug‘urtasining ulushining oshishi

Hayot sug‘urtasining bozor ichidagi ulushi 2020-yilda 15% bo‘lib, 2024-yilda 37% ga oshgan. Bu o‘sish aholi o‘rtasida uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga bo‘lgan talabning oshganini ko‘rsatadi. Shuningdek, pandemiyadan keyin aholining sog‘liqni saqlash va moliyaviy xavfsizlikka bo‘lgan e’tibori ortdi, bu esa hayot sug‘urtasi xizmatlariga bo‘lgan talabni oshirgan. Ixtiyoriy sug‘urtaning bozor ulushining oshishi 2020-yilda 52% bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 74% ga yetdi. Ixtiyoriy sug‘urta turlarining o‘sishi, aholining o‘z xohishi bilan qo‘shimcha sug‘urta xizmatlaridan foydalanish istagini bildiradi. Xususan, mol-mulk sug‘urtasi, sog‘liqni saqlash sug‘urtasi va hayot sug‘urtasi bozorining kengayishi bilan, aholining moliyaviy xabardorligi va ishonchi ortganini ko‘rshimiz mumkin.

Mazkur statistik ma'lumotlar sug‘urta bozorining har bir aspektida o‘sish va rivojlanishning kuzatilganligini ko‘rsatadi. 2020–2024 yillar orasida sug‘urta mukofotlari, kompaniyalar soni, hayot va ixtiyoriy sug‘urta xizmatlarining o‘sishi O‘zbekiston sug‘urta bozorining mustahkamlanayotganini anglatadi. Bu borada davlat tomonidan amalga oshirilgan huquqiy islohotlar, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va aholining sug‘urta madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini bermoqda.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekiston sug‘urta tizimi so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Davlat tomonidan amalga oshirilgan huquqiy islohotlar, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va xalqaro standartlarga moslashish bo‘yicha qilingan choralar sug‘urta bozorining yanada rivojlanishiga zamin yaratdi. 2020–2024 yillar davomida sug‘urta mukofotlari hajmi, kompaniyalar soni va bozor segmentlari bo‘yicha kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar mamlakatda sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabning ortib borayotganini



ko'rsatadi. Birinchi navbatda, sug'urta bozorining kengayishi aholi o'rtasida moliyaviy xavfsizlikka bo'lgan talabning oshganini anglatadi. Ayniqsa, hayot sug'urtasi va ixtiyoriy sug'urta turlarining ulushining oshishi, aholining uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga qaratilgan ehtiyojlarining kuchayganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, raqobatbardosh sug'urta bozorining shakllanishi va sug'urta kompaniyalarining ko'payishi bozorning samaradorligini oshiradi, xizmatlar sifatini yaxshilaydi.

Biroq, bozorda ba'zi muammolar ham mavjud. Bu, bir tomondan, aholi va tadbirkorlar orasida sug'urtaga bo'lgan ishonchning to'liq o'rnatilmaganligini, ikkinchi tomondan esa ba'zi sug'urta turlari, ayniqsa, majburiy sug'urtaning samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xususan, kichik va o'rta bizneslar o'rtasida sug'urta xizmatlaridan foydalanuvchilar soni hali ham cheklangan. Shu xulosalarga asoslangan holda quyidagi takliflarni berib o'taman.

1. Sug'urta madaniyatini oshirish:

Sug'urta tizimi bo'yicha aholining xabardorligini oshirish uchun keng ko'lamlita'llim va targ'ibot dasturlari zarur. Ayniqsa, yosh avlodni moliyaviy xavfsizlik va sug'urta xizmatlarining ahamiyati haqida ma'lumot berish kerak. Maktablar, oliy o'quv yurtlari va jamiyatning boshqa segmentlariga mo'ljallangan treninglar va seminarlar tashkil etilishi mumkin.

2. Ixtiyoriy sug'urta xizmatlarini rag'batlantirish:

Ixtiyoriy sug'urta xizmatlari bozorining kengayishi uchun davlat tomonidan maxsus rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar ko'riliishi lozim. Masalan, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha davlatning ma'lum foizda subsidiya yoki imtiyozli shart-sharoitlar taqdim etishi, aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.

3. Raqobatni kuchaytirish:

Sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi raqobatni kuchaytirish uchun davlat tomonidan yuqori sifatlari xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarga qo'shimcha rag'batlar berilishi lozim. Raqobat kuchaygan sari, xizmatlarning sifatini oshirish va narxlarni raqobatbardosh qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

4. Xalqaro tajriba va innovatsiyalarni joriy etish:



O‘zbekistonda sug‘urta bozorining yanada rivojlanishi uchun xalqaro tajriba va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish zarur. Raqamli sug‘urta platformalarini yaratish, onlayn sug‘urta xizmatlarini kengaytirish va blockchain kabi yangi texnologiyalarni joriy etish bozorning shaffofligini oshirishga yordam beradi.

5. Qonunchilik va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish:

Sug‘urta kompaniyalarining samarali faoliyat yuritishi uchun qonunchilikni yanada takomillashtirish lozim. Maxsus sug‘urta turlari bo‘yicha soliq imtiyozlari yaratish, sug‘urta kompaniyalariga moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun ko‘mak beruvchi mexanizmlar joriy etilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston sug‘urta tizimi ijobjiy o‘zgarishlarni amalga oshirgan bo‘lsa-da, bozorni yanada rivojlantirish uchun yuqoridaqgi takliflar amalga oshirilsa, bu sohaning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini yanada oshiradi. Shu bilan birga, sug‘urta madaniyatining shakllanishi va aholi o‘rtasida sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan ishonchning ortishi bozorning rivojlanishini tezlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI.

1. "O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta tizimini rivojlantirish: muammolar va yechimlar", 2020.
2. "O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi iqtisodiy islohotlar va raqamli transformatsiya", 2021.
3. "Sug‘urta sohasidagi qonunchilik islohotlari va ularning iqtisodiyotga ta’siri", 2022.
4. "Sug‘urta xizmatlari va uning iqtisodiy o‘sishga ta’siri", 2023.
5. "O‘zbekiston sug‘urta bozorining kelajagi: istiqbollar va rivojlanish yo‘llari", 2024.
6. "Sug‘urta bozorining iqtisodiy tahlili va uni rivojlantirishning innovatsion yo‘llari", 2021.
7. "Sug‘urta tizimi va uning aholi uchun ahamiyati: tahlil va istiqbollar", 2022.
8. "O‘zbekiston iqtisodiyotida sug‘urta sektorining roli va rivojlanish tendensiyalari", 2023.
9. "Sug‘urta kompaniyalarining strategik boshqaruvi: yondashuvlar va amaliyot", 2022.
10. "Global sug‘urta bozori va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri", 2024.